

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

BOBOYEV FAXRIDDIN ATOYEVICH

**BARQAROR ISHLAB CHIQARISH TAMOYILLARI VA TO'QIMACHILIK
REGENERATI ASOSIDA QUYMA USULDA BIRIKTIRILADIGAN
MAXSUS POYABZALNI LOYIHALASH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

05.06.03 – Teri, mo'yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**
**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on technical science**

Boboyev Faxriddin Atoyevich

Barqaror ishlab chiqarish tamoyillari va to'qimachilik regenerati
asosida quyma usulda birlashtiriladigan maxsus poyabzalni
loyihalash usullari 3

Бобоев Фахриддин Атоевич

Совершенствование методов проектирования специальной
обуви литьевого метода крепления на основе принципов
устойчивого производства и использования
текстильного регенерата 23

Boboyev Fakhriddin Atoyevich

Improvement of Design Methods for Special Footwear with Injection-Molded
Attachment Based on the Principles of Sustainable Production and the Use of
Recycled Textile Materials..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 46

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

BOBOYEV FAXRIDDIN ATOYEVICH

**BARQAROR ISHLAB CHIQARISH TAMOYILLARI VA TO'QIMACHILIK
REGENERATI ASOSIDA QUYMA USULDA BIRIKTIRILADIGAN
MAXSUS POYABZALNI LOYIHALASH USULLARI**

05.06.03 – Teri, mo'yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5989 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.ttyisi.uz>) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ilxamova Maloxat Utkurovna

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy apponentlar:

Baxadirov G'ayrat Ataxonovich

texnika fanlari doktori, professor

Musayev Sayfullo Safoyevich

texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 28 avgust soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Shohjaxon ko'chasi, 5. Tel.: (+99871) 253-06-06; faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: titlp_info@edu.uz, TTYSI ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 308 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Shohjaxon ko'chasi, 5. Tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08. e-mail: titlp_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «6» avgust kuni tarqatildi.
(2026-yil «6» avgustdagi 308 raqamli reyestr bayonnomasi).



X.X.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d. professor

A.Z.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash Ilmiy kotibi, t.f.d., professor

N.B.Mirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda IT-texnologiyalarning jadal taraqqiyoti sharoitida raqamli transformatsiya poyabzal sanoatini modernizatsiya qilishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon miqyosida poyabzal ishlab chiqarish korxonalarida avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari, 3D-modellashtirish, raqamli skanerlash va sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, moddiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilar hajmini kamaytirish hamda ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada poyabzalni loyihalash usullarini takomillashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda moddiy resurslardan sirkulyar foydalanishga asoslangan barqaror ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida poyabzalni loyihalash va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari keng ko‘lamda olib borilmoqda. Shu bilan birga, ikkilamchi xomashyoga asoslangan zamonaviy materiallardan foydalanish, poyabzal konstruksiyalarini takomillashtirish, mahsulotning gigiyenik va ergonomik xususiyatlarini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda texnologik zanjirlarni qisqartirish orqali mahsulot tannarxini kamaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada raqamli texnologiyalar asosida poyabzalni loyihalash jarayonlarini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurs tejankor va ekologik xavfsiz materiallarni qo‘llash hamda mahsulot sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda maxsus poyabzal ishlab chiqarish segmentini shakllantirish, ichki bozorni sifatli va xavfsiz mahsulotlar bilan ta’minlash hamda importga qaramlikni kamaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «Yangi O‘zbekiston»ning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida «yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirish, sanoat ishlab chiqarishi hajmini 1,4 barobarga oshirish...» kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirish, jumladan, mahalliy xomashyo asosida funksional talablarga javob beradigan maxsus poyabzallar ishlab chiqarish hamda mahsulot sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-martdagi PQ-3603¹ son «Charm va mo‘yna ishlab chiqarish sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2023-yil 11-oktabrdagi PQ-331-son “Charm-poyabzal va

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-martdagi PQ-3603 qarori

mo'ynachilik sohaslarida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 8-fevraldagi PQ-4982-son «Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida»gi va 2024-yil 20-maydagi PQ-181-son "Charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik tarmoqlarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurslarni tejash» ustuvor yo'nalishi dasturi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Maxsus poyabzalni loyihalash va ishlab chiqarish muammolari, jumladan, quyma usulda biriktirish texnologiyasini takomillashtirish masalalariga Karabanov P.S., Chernyx E.V., Dmitriyenko T.A., Kalinchev E.L., Tadmor Z., Gogos K. va boshqa xorijiy olimlarning ishlari bag'ishlangan.

Mamlakatimizda esa maxsus poyabzalni loyihalash usullarini va ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish masalalari bo'yicha U.M. Maksudova, M.U. Ilxamova, N.B. Mirzayev, A.T. Ibragimovlarning ilmiy ishlari bajarishgan.

Ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlarga qaramay, quyma biriktirish usulidagi maxsus poyabzallarni loyihalash metodlarini barqaror ishlab chiqarish tamoyillari asosida takomillashtirish, to'qimachilik regenerati asosidagi materiallardan samarali foydalanish hamda mahsulotning funksional va ekspluatatsion xususiyatlarini oshirish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli ushbu yo'nalishda kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining xalqaro ilmiy-tadqiqot loyihalari REILEAP-"O'zbekiston va Qozog'istonda charm va charm mahsulotlari sohasida oliy ta'lim muassasalari salohiyatini kuchaytirish" (2021–2024 yy.) hamda TEX4FUTURE - "To'qimachilik ishlab chiqarishning kelajagi O'zbekiston va Qozog'istonda" (2024-2026 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Quyma usulidagi maxsus poyabzalni loyihalash metodikasini takomillashtirish hamda ushbu turdagi maxsus poyabzal konstruksiyasida to'qimachilik kayta ishlangan xomashyo asosida tayyorlangan noto'qima materiallardan foydalanish imkoniyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maxsus poyabzallarni loyihalashning zamonaviy usullarini hamda ularni ishlab chiqarishda konstruktorlik-texnologik tayyorgarlikni avtomatlashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni qiyosiy tahlil qilish;

quyma biriktirish usulidagi poyabzal ishlab chiqarishda yuzaga keladigan nuqsonlarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

to'qimachilik regenerati asosidagi noto'qima materiallarning xossalarini ularni tikma patak sifatida qo'llash imkoniyatini aniqlash maqsadida tadqiq etish;

poyabzal tanavori bilan tikma patakni biriktiruvchi chok mustahkamligining chok parametrlari va tikma patak materiali xossalariga bog'liqligini aniqlash;

quyma biriktirish hamda tikma-quyma biriktirish usullaridagi turli poyabzal konstruksiyasini loyihalash parametrlarining qiyosiy tavsifini ishlab chiqish;

AUTOCAD grafik tizimidan foydalangan holda quyma va tikma-quyma biriktirish usulidagi poyabzallarni loyihalash metodikasini takomillashtirish;

quyma biriktirish usulidagi poyabzal andazalarini avtomatlashtirilgan loyihalash samaradorligini texnik-iqtisodiy asoslash.

Tadqiqotning ob'ekti quyma va tikma-quyma biriktirish usulidagi maxsus poyabzallar, shuningdek, tikma pataklar uchun to'qimachilik regenerati asosidagi noto'qima materiallardan iborat.

Tadqiqotning predmeti to'qimachilik regenerati asosidagi noto'qima materialning barqaror ishlab chiqarish tamoyillariga muvofiq tikma pataklar tayyorlashda qo'llash imkoniyatini belgilovchi fizik-mexanik, gigiyenik va texnologik xossalari, shuningdek, tikma-quyma biriktirish usulidagi maxsus poyabzallarni loyihalashni takomillashtirish usullaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy-texnik va patent adabiyotlari tahlili, qiyosiy hamda konstruktiv tahlil usullari, to'qimachilik regenerati asosidagi noto'qima materiallarning fizik-mexanik va gigiyenik xossalarini aniqlash bo'yicha eksperimental tadqiqotlar, texnologik parametrlarni optimallashtirish uchun matematik statistika va modellash usullari, shuningdek, maxsus poyabzallarni avtomatlashtirilgan loyihalashning zamonaviy dasturiy vositalari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

quyma usuldagi poyabzal nuqsonlarining integral bahosi asosida ularning yuzaga kelishi tanavor konstruktiv xususiyatlari, qo'llaniladigan materiallar xossalari, uskuna parametrlari va texnologik rejimlarning majmuaviy ta'siri bilan belgilanishi aniqlangan;

fizik-mexanik va gigiyenik xossalarning kompleks bahosi asosida tikma-quyma usuldagi maxsus poyabzalning tikma patagi uchun to'qimachilik regeneratidan foydalanilgan noto'qima materialning ratsional tarkibi aniqlangan;

poyabzal tanavorini tikma patak bilan biriktirish chokining mustahkamligini, chokning texnologik parametrlari va tikma patak yuza zichligi orasidagi bog'liqligi eksperimental hamda regressiya tenglamalarini tahlil qilish asosida aniqlangan;

quyma va tikma-quyma usullardagi poyabzal konstruksiyalarini qurish parametrlarining qiyosiy tahlili asosida poyabzalning ustki va tag detallari gradatsiya koeffitsiyentlarini hisoblash algoritmi taklif etilgan va dasturiy ta'minot ko'rinishida amalga oshirilgan, shuningdek, quyma va tikma-quyma usullarda poyabzalni avtomatlashtirilgan loyihalash texnologiyasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

regeneratsiyalangan xomashyo asosidagi noto'qima materiallarni tikma-quyma biriktirish usulidagi maxsus poyabzal konstruksiyasida qo'llash imkoniyati asoslab berildi;

poyabzal tanavorini tikma patak bilan yig'ish operatsiyalarining tayyor mahsulot sifatini ta'minlovchi optimal texnologik parametrlari aniqlandi;

AutoCAD tizimining avtomatlashtirilgan loyihalash vositalaridan foydalangan holda maxsus poyabzallarni loyihalash metodikasi takomillashtirildi;

regenerat asosidagi noto'qima materiallardan tayyorlangan tikma patakli quyma usulidagi poyabzallarni loyihalash va ishlab chiqarishning texnologik reglamenti ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijalarning muvofiqligi, approbatsiya va amaliyotga joriy qilishning ijobiy natijalari, shuningdek, zamonaviy usullar va vositalar bilan sinovdan o'tkazish bilan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

quyma biriktirish usulidagi poyabzallarni loyihalashda texnologiya va poyabzal konstruksiyasi xususiyatlarini hisobga oluvchi avtomatlashtirilgan loyihalash yondashuvi taklif etildi va asoslab berildi;

regenerat asosidagi noto'qima materiallardan chokli-quyma biriktirish usulidagi maxsus poyabzallarda konstruktiv element sifatida foydalanish imkoniyati aniqlandi;

muqobil materiallardan foydalanilganda ham konstruktiv-texnologik parametrlarning maxsus poyabzal sifati va ishonchliligiga ta'siri haqidagi ilmiy tasavvurlar kengaytirildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

maxsus maqsadli poyabzallarni loyihalashda aniqlikni oshirish, muddat va mehnat sarfini qisqartirish imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan loyihalash metodikalari ishlab chiqildi;

ekologik yo'naltirilgan noto'qima materiallardan foydalangan holda quyma biriktirish usulidagi poyabzal ishlab chiqarishning texnologik reglamenti ishlab chiqildi, bu esa barqaror ishlab chiqarish va chiqindilarni kamaytirishga xizmat qiladi;

poyabzal zagotovkasini yig'ish operatsiyalarining texnologik parametrlari aniqlandi, bu ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish va mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlash imkonini beradi;

olingan natijalar poyabzal sanoati korxonalarida joriy etilishi, shuningdek, poyabzalni loyihalash va texnologiyasi sohasida mutaxassislar tayyorlashda ixtisoslashgan ta'lim muassasalari o'quv jarayonida foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyma usulda biriktiriladigan maxsus poyabzalni loyihalash va ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ishlab chiqilgan texnologik reglament hamda AutoCAD grafik tizimi asosidagi takomillashtirilgan loyihalash metodikasi ChP «SADIKOV OLIMJON

NABIXO‘JAYEVICH» korxonasida ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etilgan («O‘ZCHARMSANOAT» uyushmasining 2026-yil 13-maydagi 17/627-son ma‘lumotnomasi). Joriy etilgan texnologiyalar natijasida maxsus poyabzal modellarini loyihalash va ishlab chiqarish jarayonlarining konstruktiv-texnologik tayyorgarlik vaqtini 2,7 barobarga qisqartirishga, material sarfini optimallashtirishga hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishilgan;

olingan to‘qimachilik regeneratidan foydalanilgan noto‘qima material MChJ «SERGELI SANOAT SERVIS» korxonasida amaliyotga joriy etilgan («O‘ZCHARMSANOAT» uyushmasining 2026-yil 13-maydagi 17/627-son ma‘lumotnomasi). Natijada import o‘rnini bosuvchi noto‘qima materiallardan foydalanish hisobiga material xarajatlari kamaytirildi, tikma patak uchun qo‘llaniladigan materiallar assortimenti kengaytirildi, maxsus poyabzalning gigiyenik va ekspluatatsion xususiyatlari yaxshilandi hamda ishlab chiqarishning resurs tejamlorligi ta‘minlandi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy ilmiy natijalari 14 ta ilmiy ishda e‘lon qilingan bo‘lib, shundan 7 tasi ilmiy maqolalar hisoblanadi. Jumladan, 2 ta maqola respublika miqyosidagi, 2 ta maqola esa O‘zbekiston Respublikasida tavsiya etilgan xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari dasturiy mahsulotni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnoma (O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish tizimi) bilan tasdiqlangan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 122 betni tashkil etadi..

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqoti mavzusining dolzarbligi va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, ishning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatib berilgan. Ilmiy yangiliklar va tadqiqotning amaliy natijalari bayon etilgan, ularning nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish masalalari yoritilgan, ilmiy natijalarning sinovdan o‘tkazilishi va chop etilgan ilmiy ishlar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan, shuningdek dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Quyma usulda biriktiriladigan maxsus poyabzal texnologiyasining hozirgi holati**» deb nomlanib, unda poyabzal tag qismini quyma usulda biriktirishning konstruktiv xususiyatlari va tasnifi, qo‘llaniladigan materiallar va uskunalar, shuningdek quyma ishlab chiqarish liniyalarining tashkiliy sxemalari ko‘rib chiqilgan. Poyabzal tag qismini shakllantirishda qo‘llaniladigan polimer materiallar hamda poyabzal usti uchun


ishlatiladigan materiallar, jumladan qo'yma pataklar uchun noto'qima materiallar ekspluatatsion, texnologik va gigiyenik xususiyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Maxsus poyabzalni loyihalashning zamonaviy usullari va konstruktiv-texnologik tayyorgarlik jarayonini avtomatlashtirishda raqamli texnologiyalar, jumladan CAD-tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. O'tkazilgan tahlil natijalari quyma usulda biriktiriladigan maxsus poyabzal konstruksiyalari va ularni loyihalash usullarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi hamda keyingi eksperimental tadqiqotlar uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qildi. Quyma biriktirish usullari va qo'llaniladigan materiallar bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Texnologik bajarilishiga ko'ra poyabzal tag qismini quyma usulda biriktirish usullari

№	Quyma usul turi	Asosiy material	Biriktirish turi	Texnologik xususiyatlari
1	Bosim ostida quyish	PVX, TEP, TPU	Mexanik	Yuqori bosim ostida qolipga yuborish
2	Plastizollarni quyish	PVX plastizol	Bosimsiz	Qizdirish jarayonida gel hosil bo'lishi
3	Suyuq shakllantirish	Poliuretan (PU)	Kimyoviy	Qolip ichida polimerlanish

Zamonaviy quyma uskunalarning rotorli, konveyerli (chiziqli) va yoysimon («banansimon») komponovkalari, ularning texnologik funksiyalari hamda qo'llanish sohalari ko'rsatib berilgan.




Rasm 1. Maxsus poyabzal ustki qismini tag qismi bilan quyma usulda biriktirish usullari bo'yicha kompleks tasniflash sxemasi

Konstruktsiyalar va texnologik sxemalar tahlili asosida maxsus poyabzal ustki qismini tag qismi bilan quyma usulda biriktirish metodlarining texnologik va konstruktiv belgilari bo'yicha kompleks klassifikatsiya sxemasi ishlab chiqilgan (1-rasm), unda quyidagi darajalar ajratilgan: quyma jarayoni turi, taglik materiallari, ustki qismni shakllantirish usullari, maxsus poyabzal konstruktsiyalari turlari hamda ularning qo'llanish sohalari (ishchi, himoya va turli tarmoqlar uchun maxsus poyabzallar).

Quyma usuli, uskuna turi va taglik materialini tanlash poyabzal tanavori konstruktsiyasi hamda maxsus poyabzalning ekspluatatsion xususiyatlariga qo'yiladigan talablar bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqilishi lozimligi ko'rsatildi, bu esa quyma biriktirish usulidagi poyabzal ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifati pasayishiga ta'sir etuvchi omillarni keyingi tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning «**Quyma biriktirish usulidagi poyabzal ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish**» nomli ikkinchi bobida poyabzal tag qismini quyma usulda biriktirish jarayonining sifati va barqarorligini belgilovchi konstruktiv-texnologik yechimlar tahlil qilingan. Korxonalarda qo'llanilayotgan quyma agregatlari hamda to'g'ridan-to'g'ri quyish va bosim ostida quyish texnologik jarayonlarining xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Quyma biriktirish usulidagi poyabzal konstruktsiyalarining tag qismini siqib biriktirish turi (iz bo'ylab, yarim yonlama, yonlama), ustki qismni shakllantirish usuli hamda patakni biriktirish xususiyatlari bo'yicha klassifikatsiyasi amalga oshirilgan. Yonlama va yarim yonlama siqib biriktirishga ega bo'lgan, asosan hajmli va kombinatsiyalangan tanavorlarda qo'llaniladigan konstruktsiyalar iz bo'ylab siqib biriktiriladigan konstruktsiyalarga nisbatan yuqori texnologik ishonchlilik va kamroq nuqsonlilikni ta'minlashi ko'rsatib berilgan (2-rasm).




2-rasm. Quyma usulda biriktiriladigan poyabzalning asosiy konstruktsiyalari

Quyma birikmaning mustahkamligi, germetikligi va uzoq muddat xizmat qilishiga asosiy ta'sirni poyabzal tanavori konstruksiyasi, uni qolipda shakllantirish usuli hamda tag qismini siqib biriktirish xarakteri ko'rsatishi aniqlangan. Poyabzal tanavorining fazoviylik darajasi shakllantirish jarayonining barqarorligi va quyma birikma sifatini belgilovchi asosiy omil ko'rsatib berilgan.

Mazkur bo'limda quyma biriktirish usulidagi poyabzal ishlab chiqarishda yuzaga keladigan nuqsonlar tahlil qilinib, ularning asosiy qismi materiallar xossalari quyma jarayoni talablariga mos kelmasligi, shakllantirish rejimlarining buzilishi hamda tanavor konstruksiyasining xususiyatlari bilan bog'liqligi aniqlangan. Amaldagi korxonalardagi nuqsonlar tarkibini tahlil qilish asosida eng ko'p uchraydigan nuqsonlar quyma jarayoni va ustki qism materiallari bilan bog'liq nuqsonlar ekanligi ko'rsatib berilgan (3-rasm).

Jarayonning optimal parametrlariga rioya qilinmagan holda konstruksiyaning murakkablashuvi hamda tanavorning ko'p qatlamli tuzilishi nuqsonlilik darajasining keskin oshishiga olib kelishi aniqlangan.

Olingan natijalar asosida nuqsonlarni bartaraf etish va oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular tortish bahyasi qo'shimchalarini maqbullashtirish, quyma rejimlarini optimallashtirish, tanavor konstruksiyasini takomillashtirish hamda ratsional shakllantirish usullarini qo'llashni o'z ichiga oladi.




3-rasm. Quyma biriktirish usulidagi poyabzal ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish xarakteridagi nuqsonlar nisbati

Konstruktiv, materialshunoslik va texnologik omillarni kompleks hisobga olish quyma biriktirish usulidagi poyabzal ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda tayyor mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlash imkonini berishi ko'rsatildi.

Dissertatsiyaning «**Tikma patak uchun noto'qima materiallarning xossalari**» nomli uchinchi bobida quyma biriktirish usulidagi maxsus

poyabzalning tikma (shtrobel) pataklarida qo'llash uchun mo'ljallangan to'qima regenerati asosidagi noto'qima materiallarning ekologik-iqtisodiy hamda fizik-mexanik xususiyatlari tadqiq etilgan. To'qima regeneratidan foydalanish barqaror rivojlanish tamoyillariga mos kelishi, shu bilan birga mahsulot tannarxini kamaytirish va ekspluatatsion xossalarning talab etilgan darajasini ta'minlash imkonini berishi ko'rsatib berilgan. 4-rasmda olingan noto'qima material namunalarining fotosuratlari keltirilgan.



4-rasm. To'qima regenerati qo'llanilgan noto'qima material namunalari

1-namuna - regeneratsiyalangan tolalar (paxta, jun, akril tolalar) - 50 %; qayta ishlangan paxta - 20 %; dag'al jun tolalari - 20 %; bikomponent tolalar - 10 % (4-rasm, a).

2-namuna - regeneratsiyalangan tolalar (paxta, jun, akril tolalar) - 60 %; qayta ishlangan paxta -20 %; bikomponent tolalar - 20 % (4-rasm, b).

3-namuna - regeneratsiyalangan tolalar (paxta, jun, akril tolalar) - 50 %; qayta ishlangan paxta -10 %; dag'al jun tolalari - 20 %; bikomponent tolalar - 20% (4-rasm, v).

4-namuna - regeneratsiyalangan tolalar (paxta, jun, akril tolalar) - 50 %; qayta ishlangan paxta -20 %; dag'al jun tolalari - 10% ;bikomponent tolalar -20% (4-rasm, g).

5-namuna - regeneratsiyalangan tolalar (jun, akril tolalar, paxta) - 60 %; dag'al jun tolalari - 20 %; bikomponent tolalar - 20 % (4-rasm, d).

Ikkilamchi to'qima xomashyosini poyabzal ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish atrof-muhitga tushadigan yuklamani kamaytirishi hamda tayyor mahsulot sifatini pasaytirmagan holda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish imkonini berishi aniqlangan. Ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikning uyg'unligi


regeneratdan foydalanishni quyma biriktirish usulidagi maxsus poyabzal ishlab chiqarishni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi ekanligi asoslab berilgan.

Turli tolali tarkibga ega bo‘lgan igna bilan teshish usulida olingan noto‘qima materiallarning fizik-mexanik xossalari bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar qalinlik, yuza zichligi, uzilishdagi mustahkamlik, havo o‘tkazuvchanlik va gigroskopiklik ko‘rsatkichlari bo‘yicha farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. 5–8-rasmlarda to‘qima regenerati asosidagi noto‘qima material namunalari fizik-mexanik va gigiyenik xossalarining eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan.

Olingan natijalar to‘qima regenerati asosidagi noto‘qima materiallarni tikna-quyma usulidagi maxsus poyabzalning tikma pataklarida qo‘llash imkoniyatini asoslab beradi hamda poyabzal konstruksiyalarini loyihalashda ratsional materiallar va texnologik parametrlarni tanlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.


Tadqiqot natijasida (5-rasm) № 3 va № 4 namunalar eng yuqori mustahkamlikka ega ekanligi aniqlandi: ularning uzilish yuki uzunligi bo‘yicha taxminan 340–342 N, eni bo‘yicha esa 325–333 N ni tashkil etdi. № 2 va № 5 namunalarda biroz pastroq, biroq yetarlicha yuqori ko‘rsatkichlar qayd etildi. Eng kichik qiymatlar № 1 namunada kuzatilib, uzunligi bo‘yicha taxminan 233N, eni bo‘yicha esa 225 N ni tashkil etdi.

Mustahkamlik ko‘rsatkichlari majmui bo‘yicha № 3 va № 4 namunalar eng maqbul hisoblanadi. Biroq tikma patak uchun materialni yakuniy tanlashda faqat uzilish yukini emas, balki uning gigiyenik xossalari, yuza zichligi, qalinligi va deformatsiyalarga chidamliligini ham hisobga olish lozim..




5-rasm. Noto‘qima material namunalarning uzilishdagi yuklanishi

Shu bilan birga, materiallarning havo o‘tkazuvchanlik darajasi (7-rasm) ularning g‘ovak tuzilishi va qalinligiga chambarchas bog‘liqligi aniqlangan bo‘lib, bu poyabzal ichidagi havo almashinuvi sharoitlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.




6-rasm. Noto‘qima material namunalari yuza zichligi ko‘rsatkichlari



7-rasm. Havo o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari

Tadqiq etilgan noto‘qima materiallarning gigiyenik xossalari 8-rasmda keltirilgan gigroskopiklik ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi.




8-rasm. Gigroskopiklik ko‘rsatkichlari

Noto‘qima material namunalari fizik-mexanik ko‘rsatkichlarining umumlashtirilgan natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Noto‘qima materiallarning fizik-mexanik xususiyatlari

Ko‘rsatkich nomi	Namuna 1	Namuna 2	Namuna 3	Namuna 4	Namuna 5
Qalinlik, mm	3,1	2,6	2,4	2,2	28
Yuza zichlik, g/m ²	567	592	601,8	596	584,9
Uzilish kuchi, N material uzunligi bo‘yicha material eni bo‘yicha	233 225	326 314	342 334	341 325	306 297
Uzilish paytidagi uzayish. material uzunligi bo‘yicha material eni bo‘yicha	26 28	22 25	19 21	19 22	23 25
Gigroskopiklik, %	9,86	9,02	8,63	9,92	10,2
Havo o‘tkazuvchanlik, sm ³ /sm ²	46,5	40,9	41,2	43,8	36,4

Olingan natijalar to‘qima regenerati asosidagi materiallarning namlikni samarali singdirish va ushlab turish xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi, bu esa mexanik barqarorlikni pasaytirmagan holda qulay ekspluatatsion sharoitlarni ta‘minlaydi. Tadqiq etilgan namunalarni xolisona taqqoslash va eng ratsional variantlarni tanlash maqsadida ahamiyatlilik koeffitsiyentlari qo‘llanilgan holda kompleks baholash amalga oshirildi, uning natijalari 9-rasmda keltirilgan.



9-rasm. Tikma patak uchun noto‘qima material namunalari fizik-mexanik ko‘rsatkichlarining kompleks bahosi

Integral ko'rsatkichlar materiallarni fizik-mexanik va gigiyenik xossalar majmuasi bo'yicha tartiblash hamda xossalarining eng muvozanatlashgan profiliga ega namunalarni ajratib ko'rsatish imkonini berdi.

Namunalarni kompleks baholash natijalari maxsus poyabzal konstruksiyasida qo'llash uchun eng istiqbolli materiallarni aniqlash imkonini berdi. O'tkazilgan ko'p mezonli baholash natijasida sifatning integral ko'rsatkichi Q_i ning eng yuqori qiymati 3-namunaga (0,790) to'g'ri kelishi aniqlandi. Bu holat eng muhim ko'rsatkichlar hisoblangan uzunligi va eni bo'yicha uzilish yukining yuqori qiymatlari bilan izohlanadi.

Keyingi tadqiqotlar uchun quyidagi tolaviy tarkibga ega 3-namuna tanlandi: regeneratsiyalangan tolalar (paxta, jun va akril tolalari) - 50 %, qayta ishlangan paxta - 10 %, dag'al jun tolalari - 20 % va bikomponentli tola - 20 %.

Kompleks baholash natijalari bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichlarni namoyon etgan materiallar nafaqat talab etilgan ekspluatatsion xossalarni, balki ipli birikmalarni shakllantirish uchun qoniqarli sharoitlarni ham ta'minlashi aniqlangan.

Tadqiqotning keyingi bosqichi sifatida noto'qima materialdan tayyorlangan tikma patak bilan poyabzal tanavorini biriktiruvchi chok mustahkamligini o'rganish amalga oshirildi. Chok mustahkamligining tadqiq etilayotgan omillarga bog'liqligini ifodalovchi regressiya modelini tuzish maqsadida laboratoriya sinovlari o'tkazildi. Omillar sifatida noto'qima materialning sirt zichligi ρ_s , g/m²; chok zichligi D, chok/sm va ip raqami T qabul qilindi. Tajribani rejalashtirishda qabul qilingan omillarning o'zgarish darajalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Tajribani rejalashtirishda omillarning o'zgarish darajalari jadvali

Omil nomi	Kodlashtirilgan belgisi	Omilning haqiqiy qiymati			O'zgarish oralig'i
		-1	0	+1	
Yuza zichligi ρ_s , g/m ²	x_1	500	550	600	50
Chok zichligi D, ct/cm	x_2	3	5	7	2
Ip raqami T	x_3	3	4	5	1

Olingan eksperimental ma'lumotlar ko'p omilli kvadratik regressiya tahlili usuli yordamida qayta ishlandi. Omillarni kodlash uchun markaziy darajalar va variatsiya intervallari qabul qilindi:

$$x_1=(\rho_s -550)/50, \quad x_2=(D-5)/2, \quad x_3=(T-4)/1 \quad (1)$$

Kodlangan o'zgaruvchilardagi to'liq kvadratik regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y = 203.259 + 5.556x_1 - 10.093x_2 + 2.889x_3 - 11.556x_1^2 - 33.722x_2^2 - 2.889x_3^2 - 1.528x_1x_2 - 1.556x_1x_3 - 1.694x_2x_3. \quad (2)$$

Ko'p omilli kvadratik regressiya tahlili natijalariga ko'ra, olingan model statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, chok mustahkamligining tajribaviy qiymatlaridagi o'zgaruvchanlikning 93,7% ini izohlaydi. Determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0,937$, tuzatilgan determinatsiya koeffitsiyenti esa $R_{adj}^2=0,928$ ni tashkil etdi. Modelning umumiy statistik ahamiyati Fisher mezoni bilan tasdiqlandi: $F=116,40$, $p<0,001$.

Regressiya koeffitsiyentlari tahlili chok mustahkamligiga eng katta ta'sirni x_2 omili - chok zichligi ko'rsatishini aniqladi. x_1 omili - noto'qima materialning sirt zichligi - tadqiq etilgan oraliqda barqaror ijobiy ta'sir ko'rsatadi. x_3 omili - ip raqamining ta'siri o'rtacha darajada namoyon bo'ladi. Omillarning juft o'zaro ta'siri asosiy va kvadratik ta'sirlarga nisbatan kamroq ifodalangan.

Tikma patak materialining yuza zichligi, baxyaqator chastotasi va ip raqami (yo'g'onligi)ning chok mustahkamligiga ta'siri uch o'lchamli grafiklar ko'rinishida yaqqol ifodalangan (10-rasm). Bu ustki tanavorni tikma patakka ip yordamida biriktirishning ishonchliligini ta'minlovchi materiallar va texnologik parametrlarni oqilona tanlashni asoslash imkonini beradi.

Keltirilgan javob yuzalari noto'qima materialning sirt zichligi ρ_s , chok zichligi D va ip raqami T ning chok mustahkamligiga birgalikdagi ta'sirini ifodalaydi. Javob yuzalarining qavariq shakli o'rganilayotgan bog'lanishning noxiziqli xususiyatga ega ekanligini va omillarning optimal qiymatlari mavjudligini tasdiqlaydi.

Ip raqami $T=4$ darajada o'zgaras qilib belgilanganida, noto'qima materialning sirt zichligini 500 g/m^2 dan taxminan 560 g/m^2 gacha oshirish chok mustahkamligining ortishiga olib keladi. Sirt zichligini 600 g/m^2 gacha yanada oshirish esa mustahkamlikning qo'shimcha ortishini ta'minlamaydi. Chok zichligi bo'yicha ham xuddi shunday noxiziqli bog'lanish aniqlandi: mustahkamlikning eng yuqori qiymatlari $D \approx 4,7-5,0$ chok/sm oralig'ida shakllanadi. Chok zichligini 3 chok/sm gacha kamaytirish yoki 7 chok/sm gacha oshirish mustahkamlikning pasayishiga olib keladi.


Noto'qima materialning sirt zichligi $\rho_s=550 \text{ g/m}^2$ darajada o'zgaras qilib belgilanganida, chok zichligi va ip raqamining o'zaro ta'sir yuzasi chok zichligining ta'siri nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatadi. Maksimal mustahkamlik $D \approx 4,7-5,0$ chok/sm oralig'ida №4–5 iplardan foydalanilganda kuzatiladi. Chok zichligi 7 chok/sm gacha oshirilganda, ip raqamidan qat'i nazar, chok mustahkamligi sezilarli darajada pasayadi.

Chok zichligi $D=5$ chok/sm darajada o'zgaras qilib belgilanganida, optimal soha sirt zichligining $550-565 \text{ g/m}^2$ qiymatlari va №4–5 iplar oralig'iga mos keladi. Ip raqamining ta'siri chok zichligi va materialning sirt zichligi ta'siriga nisbatan kamroq ifodalangan.

Chok mustahkamligining hisobiy maksimumi taxminan 205,4 N ni tashkil etib, u noto'qima materialning sirt zichligi $\rho_s \approx 560,9 \text{ g/m}^2$, chok zichligi $D \approx 4,67$ chok/sm va ip raqami $T \approx 4,49$ qiymatlariga mos keladi. Texnologik parametrlarning diskret xususiyatini hisobga olgan holda, quyidagi omillar birikmasi maqbul rejim sifatida qabul qilindi:

$$\rho_s=550 \text{ g/m}^2, D=5 \text{ chok/sm}, T=4.$$

Ushbu omillar birikmasida chok mustahkamligining tajribaviy o'rtacha qiymati 204,33 N ni tashkil etadi. Bu qiymat hisobiy maksimumga yaqin bo'lib, tanlangan texnologik rejimdan foydalanish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.



10-rasm. Omillarning quyidagi qiymatlari o‘zgaras qilib belgilanganida chok mustahkamligining javob yuzalari: a) ip raqami; b) chok zichligi; d) noto‘qima materialning sirt zichligi.

Natijalar baxyaqator parametrlarini va noto‘qima material xossalari ni maqbullashtirish orqali chokning mustahkamlik ko‘rsatkichlarini maqsadli boshqarish imkoniyati mavjudligini tasdiqlaydi. Bu talab etilgan ekspluatatsion xususiyatlarga ega maxsus poyabzal konstruksiyalarini loyihalashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi

Olingan tajriba ma’lumotlari regeneratsiyalangan tolalar asosidagi noto‘qima materiallar zarur ekspluatatsion xossalarga ega ekanligini, maxsus poyabzal ichki konstruksiyasi elementlariga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligini hamda ularni kelgusida sanoat ishlab chiqarishiga joriy etish uchun tavsiya etish mumkinligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning **to‘rtinchi bobida** tikma-quyma va quyma biriktirish usulidagi maxsus poyabzalni loyihalashning takomillashtirilgan metodikasi ishlab chiqilgan va asoslab berilgan bo‘lib, u konstruksiyaning ishonchliligi, shakl barqarorligi hamda ishlab chiqarishni konstruktorlik tayyorlash samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan.

Tlma -quyma biriktirish usulidagi poyabzalni loyihalashda hajmli poyabzal tanavorini shakllantirish parametrlari, tikma patak perimetrining tanavor konturi bilan moslashtirilishi hamda siljidigan qolipda ichki shakllantirish sharoitlari muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib berilgan. An’anaviy empirik yondashuvlardan farqli ravishda taklif etilgan metodika materiallarning deformatsion xossalari ni hamda «ustki qism – tikma patak – quyma taglik» tizimi elementlarining o‘zaro ta’sir xususiyatlarini hisobga oladi.

Quyma va tikma-quyma biriktirish usulidagi poyabzal konstruksiyalarining qiyosiy tavsifi amalga oshirilgan bo‘lib, tikma-quyma usuli mahsulotning yuqori egiluvchanligini, ekspluatatsiya jarayonida deformatsiyalarning bir tekis taqsimlanishini hamda 11-rasmda keltirilgan ipli (shtrobel) chok va taglikning

quyma birikmasi uyg'unligi hisobiga birikmaning yuqori ishonchliligini ta'minlashi aniqlangan.




11-rasm. Tikma-quyma biriktirish usulidagi maxsus poyabzal modellari eskizlari

Konstruktiv va ekspluatatsion parametrlarning qiyosiy tahlili natijalari poyabzalning vazifasiga qarab biriktirish usulini differensial tanlash maqsadga muvofiqligini tasdiqladi.

To'rtinchi bobda ishlab chiqilgan loyihalash metodikasi avtomatlashtirilgan grafik vositalardan foydalanishga asoslangan bo'lib, qolip yon sirtining shartli yoyilmasini raqamli qurishni, ichki shakllantirish jarayonida tanavor deformatsiyalarini hisobga olishni hamda ustki qism konstruksion parametrlarini quyma qolip geometriyasi bilan moslashtirishni nazarda tutadi. 12-rasmda keltirilgan sxema bo'yicha AutoCAD grafik tizimida amalga oshirilgan metodikadan foydalanish loyihalash aniqligini oshirish va yangi poyabzal modellarini ishlab chiqish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi.

Loyihalashning asosiy bosqichlariga sarflanadigan vaqt bo'yicha o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar avtomatlashtirilgan metodikani qo'llash konstruktiv asos va andazalar detalirovkasini qurish davomiyligini an'anaviy qo'lda loyihalashga nisbatan o'rtacha 2,7 barobarga qisqartirish imkonini berishini ko'rsatdi.

Mazkur loyihalash bosqichini avtomatlashtirish maqsadida poyabzalni avtomatlashtirilgan loyihalash tizimida gradatsiya koeffitsiyentlarini hisoblash dasturi ishlab chiqilgan. Dastur kiritilgan boshlang'ich parametrlar (o'lcham tizimi, bazaviy o'lcham, iz uzunligi va to'liqligi bo'yicha gradatsiya qadami) asosida andazalarning kontur nuqtalarini bo'ylama va ko'ndalang siljitish qiymatlarini avtomatik aniqlash, gradatsiya koeffitsiyentlari jadvallarini shakllantirish hamda ularni detal konstruksion qismlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash imkonini beradi



12-rasm. AutoCAD grafik tizimidan foydalangan holda quyma biriktirish usulidagi poyabzalni loyihalash jarayoni sxemasi

Bob doirasida quyma biriktirish usulidagi poyabzal modellarini avtomatlashtirilgan loyihalash va seriyali gradatsiyalashni joriy etishning texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilgan. Ishlab chiqarishni konstruktorlik tayyorlash muddatlarini qisqartirish, mehnat sig'imini kamaytirish hamda modellarni o'zlashtirish jarayonidagi tuzatishlar hajmini qisqartirish sezilarli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashi aniqlangan.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan tikma-quyma va quyma biriktirish usulidagi maxsus poyabzallarni loyihalash metodikasi mahsulotlarning ishonchliligi va ergonomikligini oshirishni, loyihalash muddatlari hamda xarajatlarini qisqartirishni ta'minlaydi, shuningdek, poyabzal sanoatida resurs tejovchi va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish uchun sharoit yaratadi.

XULOSA

Ishning asosiy natijalari quyidagi xulosalar va tavsiyalarda shakllantirilgan

1. Maxsus poyabzallarni loyihalashning zamonaviy usullari hamda ishlab chiqarishni konstruktorlik-texnologik tayyorlashni avtomatlashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish tahlil qilindi, natijada AutoCAD muhitida loyihalashning universal va moslashuvchan yondashuvi asoslab berildi;

2. Quyma biriktirish usulidagi poyabzal ishlab chiqarishda yuzaga keladigan asosiy texnologik nuqsonlar tahlil qilinib, ularning kelib chiqish sabablari aniqlandi va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

3. To'qima regenerati asosidagi noto'qima materiallarning fizik-mexanik va gigiyenik xossalari tadqiq qilinib, ularni tikma patak sifatida qo'llash imkoniyati eksperimental jihatdan tasdiqlandi, regeneratsiyalangan ikkilamchi xomashyodan foydalanilgan aralash tolali tarkibli tikma patak materiallarining kompleks baholanishi

material sig'imini kamaytirish va resurs tejamkorligini oshirish imkoniyatini asoslab berdi;

4. Poyabzal tanavorini tikma patak bilan biriktirish chokining mustahkamligi chok parametrlari va tikma patak materiali xossalriga bog'liqligi aniqlandi hamda chok mustahkamligini prognozlashning matematik modeli ishlab chiqildi;

5.Quyma va tikma-quyma biriktirish usullaridagi turli poyabzal konstruktsiyalarini qurish parametrlarining qiyosiy tavsifi bajarilib, ularning konstruktiv va texnologik xususiyatlari aniqlandi;

6. AutoCAD grafik tizimidan foydalangan holda quyma va tikma-quyma biriktirish usulidagi poyabzallarni loyihalash metodikasi takomillashtirildi, shuningdek, poyabzal detallarini gradatsiyalash algoritmi ishlab chiqildi;

7. Quyma-tikma biriktirish usulidagi poyabzal andazalarini avtomatlashtirilgan loyihalash samaradorligining texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari asosida tikma-quyma biriktirish usulidagi maxsus poyabzallarni loyihalash va ishlab chiqarishning texnologik reglamenti ishlab chiqildi hamda «Sergeli Sanoat Servis» MChJ va «O.N. SADIKOV» YTT poyabzal korxonalarida joriy etildi. Ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish natijasida maxsus poyabzal modellarini loyihalash va ishlab chiqarish jarayonlarining konstruktiv-texnologik tayyorgarlik vaqtini 2,7 barobarga qisqartirishga, to'qima regenerati asosidagi noto'qima materiallardan foydalanish hisobiga material xarajatlari 13 % ga kamaytirildi, shuningdek, 113 150 700 so'm miqdorida kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSC.03/2025.27.12.Т.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

БОБОВЕВ ФАХРИДДИН АТОЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ПРОЕКТИРОВАНИЯ
СПЕЦИАЛЬНОЙ ОБУВИ ЛИТЬЕВОГО МЕТОДА КРЕПЛЕНИЯ НА
ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ УСТОЙЧИВОГО ПРОИЗВОДСТВА И
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕКСТИЛЬНОГО РЕГЕНЕРАТА**

05.06.03 – Технология кожи, меха, обуви и кожевенно-галантерейных изделий

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за номером B2025.3.PhD/T5989.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (<http://www.ttyesi.uz>) и информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Илхамова Малохат Уткуровна
доктор философии технических наук,
доцент

Официальные оппоненты:

Бахадиров Гайрат Атаханович
доктор технических наук, профессор

Мусаев Сайфулло Сафоевич
кандидат технических наук, профессор

Ведущая организация:

**Наманганский государственный
технический университет**

Защита диссертации состоится 28 августа 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании разового Научного совета DSc.03/2025.27.12.T.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, 5. Тел.: (99871) 253-06-06; факс: (99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz. Административное здание ТИТЛП, 2 этаж, 222-аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, ул. Шохжахон-5. Тел.: (99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: (99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz) (зарегистрирована за № 308)).

Автореферат диссертации разослан «6» августа 2026 года.
(Реестр протокола рассылки № 308 от «6» августа 2026 года).



Х.Х. Камилова

Председатель разового Учёного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н. профессор

А.З. Маматов

Ученый секретарь разового Учёного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

Н.Б. Мирзаев

Председатель разового научного семинара при научном
совете по присуждению

14

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время в условиях развития цифровой экономики и стремительного прогресса IT-технологий цифровая трансформация становится одним из ключевых факторов модернизации обувной промышленности. Во всём мире внедрение систем автоматизированного проектирования, 3D-моделирования, цифрового сканирования и технологий на основе искусственного интеллекта на предприятиях обувной промышленности способствует повышению эффективности производства. Особое внимание уделяется вопросам рационального использования материальных ресурсов, сокращения объёмов отходов и внедрения экологически безопасных технологий. В этой связи важное значение приобретают совершенствование методов проектирования обуви, сокращение производственных затрат, повышение эффективности производства на основе цифровых технологий, а также развитие устойчивых технологий производства, основанных на циркулярном использовании материальных ресурсов.

В мировом масштабе широко проводятся научно-исследовательские работы, направленные на цифровизацию процессов проектирования и производства обуви, автоматизацию технологических процессов и повышение эффективности производства. Наряду с этим приоритетное значение приобретают исследования, направленные на использование современных материалов на основе вторичного сырья, совершенствование конструкций обуви, улучшение гигиенических и эргономических свойств продукции, оптимизацию производственных процессов и сокращение технологических цепочек с целью снижения себестоимости продукции. В этой области особое внимание уделяется совершенствованию процессов проектирования обуви на основе цифровых технологий, повышению эффективности производства, применению ресурсосберегающих и экологически безопасных материалов, а также развитию технологий, способствующих улучшению качества продукции.

